

“UNA MOLIYA” MMT MChJ QK

Maxfiylik siyosati

KIRISH

“UNA MOLIYA” MMT MChJ QK (keyingi o‘rinlarda — “Kompaniya”) “una moliya” mobil ilovasining ishlab chiquvchisi/mulkdori sifatida o‘z Foydalanuvchilari ma’lumotlarining maxfiyligini saqlash tamoyiliga amal qiladi.

Kompaniyaning Maxfiylik siyosati (keyingi o‘rinlarda — **“Maxfiylik siyosati”**) Foydalanuvchi tomonidan taqdim etiladigan barcha shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va saqlash tartibini, shu jumladan **“Una Moliya”** mobil ilovasi (keyingi o‘rinlarda — **“Mobil ilova”**) orqali yig‘iladigan yoki taqdim etiladigan shaxsiy ma’lumotlarni tartibga soladi.

Mazkur Mobil ilovani yuklab olish va undan foydalanish orqali Foydalanuvchi ushbu Maxfiylik siyosatida nazarda tutilgan tartib-taomillar bilan tanishganligini, ularni qabul qilganligini va ularga rozilik bildirganligini tasdiqlaydi. Foydalanuvchi Mobil ilovaning tezkor va to‘g‘ri ishlashi uchun zarur hamda yetarli bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etish zarurligiga rozilik bildiradi. Ushbu Maxfiylik siyosatining biror-bir shartiga rozi bo‘lmagan taqdirda, Mobil ilovadan foydalanmaslikni hamda hech qanday shaxsiy ma’lumotlarni taqdim etmaslikni so‘raymiz.

Hurmatli Foydalanuvchi!

“Una Moliya” Mobil ilovasidan foydalanish orqali Siz Kompaniyaga o‘zingizning shaxsiy ma’lumotlaringizni ishonib topshirasiz. E’tiboringizni shunga qaratamizki, ushbu Maxfiylik siyosatini qabul qilishingiz quyidagilarni anglatadi:

(1) shaxsiy ma’lumotlar va quyida ko‘rsatilgan boshqa ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va uzatish shartlariga rozilik bildirishingizni;

(2) ma’lumotlarni, shu jumladan shaxsiy ma’lumotlaringizni transchegaraviy uzatishni qayta ishlashga to‘liq va so‘zsiz rozilik berishingizni;

(3) ushbu Maxfiylik siyosati shartlariga rioya qilishga rozilik bildirishingiz va majburiyat olishingizni;

(4) 18 yoshga to‘lganingizni, voyaga yetgan hamda muomala layoqatiga ega shaxs ekanligingizni, o‘z harakatlaringizni to‘liq anglagan holda ularni boshqarishingizni, ixtiyoriy ravishda va o‘z manfaatlaringiz yo‘lida harakat qilishingizni tasdiqlashingizni anglatadi.

Agar Siz Kompaniyaga shaxsiy ma’lumotlaringizni to‘liq yoki qisman yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va uzatish huquqini berishni istamasangiz, ushbu Mobil ilovani yuklab olmang va undan foydalanmang.

1. “UNA MOLIYA” MOBIL ILOVASIDA FOYDALANILADIGAN ATAMALAR VA TA’RIFLAR

“una moliya” mobil ilovasi — Android va IOS platformalaridagi smartfonlar, planshetlar hamda boshqa mobil qurilmalarda ishlash uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’minot. Mobil ilova Foydalanuvchiga mikromoliyaviy xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan.

Foydalanuvchi — Mobil ilovani yuklab olgan va undan foydalanayotgan har qanday jismoniy shaxs.

Shaxsiy ma’lumotlar — Mobil ilovadan foydalanayotgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi muayyan Foydalanuvchiga oid elektron, qog‘oz va/yoki boshqa moddiy tashuvchida qayd etilgan axborot.

Shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etish — shaxsiy ma'lumotlarni muayyan shaxsga oshkor etishga qaratilgan harakatlar.

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash — shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, shaxssizlantirish va yo'q qilish bo'yicha bir yoki bir nechta harakatlarni amalga oshirish.

Shaxsiy ma'lumotlarni transcchegaraviy uzatish — shaxsiy ma'lumotlarni mulkdor va/yoki operator tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga uzatish.

Shaxsiy ma'lumotlar egasi/operatori — “UNA MOLLIYA” MMT MChJ QK (STIR: 311431122).

2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mobil ilovadan foydalanishda qo'llaniladigan Maxfiylik siyosati Kompaniya va Mobil ilova Foydalanuvchisi o'rtasidagi huquqiy munosabatlarga tatbiq etiladi hamda Kompaniya tomonidan Foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish va Mobil ilovadan foydalanish jarayonida olinadigan ma'lumotlarga nisbatan amal qiladi.

2.2. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va saqlash O'zbekiston Respublikasining amaldagi “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonuni, shuningdek shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlashga qo'yiladigan boshqa maxsus talablar doirasida amalga oshiriladi.

2.3. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari deganda Foydalanuvchini identifikatsiya qilish imkonini beruvchi ma'lumotlar yoki axborot tarkibiy qismlari tushuniladi, jumladan:

2.3.1. shaxsni tasdiqlovchi hujjatda ko'rsatilgan familiya, ism, otasining ismi (mavjud bo'lsa);

2.3.2. shaxsiy identifikatsiya raqami;

2.3.3. tug'ilgan sana va jinsi;

2.3.4. fuqaroligi;

2.3.5. shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari — turi, seriyasi, raqami, berilgan sanasi, amal qilish muddati, kim tomonidan berilgani, bo'linma kodi;

2.3.6. elektron pochta manzili;

2.3.7. qurilma ma'lumotlari — IP-manzil, User-Agent, qurilmaning raqamli izi;

2.3.8. xulq-atvor ma'lumotlari — sessiya ma'lumotlari, antifrod skoring;

2.3.9. push-bildirishnomalar — qurilma tokeni;

2.3.10. mobil aloqa qurilmasining abonent raqami;

2.3.11. yashash manzili/doimiy ro'yxatdan o'tgan manzil, shu jumladan yashash mamlakati, viloyat, tuman, shahar, ko'cha, uy va xonadon to'g'risidagi ma'lumotlar;

2.3.12. ish joyi to'g'risidagi ma'lumotlar — ish beruvchining nomi, lavozimi, bandlik turi, faoliyat sohasi, ish haqi, ish staji;

2.3.13. moliyaviy ma'lumotlar — bank hisobvarag'i raqami (IBAN), bank kartasi ma'lumotlari (BIN, oxirgi 4 ta raqam, amal qilish muddati, to'lov tizimi, karta egasining ismi, bank);

2.3.14. ta'lim to'g'risidagi ma'lumotlar;

2.3.15. fotosuratlar;

2.3.16. biometrik ma'lumotlar;

2.3.17. Foydalanuvchi ixtiyoriga ko'ra taqdim etiladigan boshqa umumlashtirilgan ma'lumotlar.

2.4. Foydalanuvchining roziligi olingan taqdirda, Kompaniya Foydalanuvchining geolokatsiya ma'lumotlariga, Foydalanuvchi kamerasidan cheklangan foydalanish huquqiga, shuningdek Foydalanuvchi qurilmasiga o'rnatilgan dasturiy ta'minot yordamida Mobil ilova servislaridan foydalanish jarayonida avtomatik tarzda uzatiladigan ma'lumotlarga ham kirish huquqiga ega bo'ladi.

2.5. Kompaniya shuningdek Mobil ilovadan foydalanish bo'yicha shaxsiy ma'lumotlarga kirmaydigan va maxfiy hisoblanmaydigan axborotlarni yig'ish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Bunday turdagi axborot, masalan, ma'lumotlarni uzatishda — “trafik ma'lumotlari” sifatida olinadi. Yuqoridagi ma'lumotlarga shuningdek Foydalanuvchilarning Mobil ilovadagi harakat yo'nalishlari va uning funksional imkoniyatlaridan foydalanish holatlari kiradi. Olingan ma'lumotlar Mobil ilova faoliyatini tahlil qilish va yaxshilash, Foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos funksional imkoniyatlarni ishlab chiqish, takomillashtirish va taqdim etish, uning ishlash sifati va tezkorligini oshirish maqsadida foydalaniladi.

2.6. Kompaniya Foydalanuvchining shaxsiy va boshqa ma'lumotlarini noqonuniy, ruxsatsiz yoki tasodifiy kirishdan, maqsadsiz foydalanishdan, yo'q qilishdan, o'zgartirishdan, bloklashdan, nusxa olishdan, tarqatishdan, shuningdek uchinchi shaxslarning boshqa noqonuniy harakatlaridan himoya qilish uchun zarur tashkiliy va texnik choralarini ko'radi.

3. SHAXSIY MA'LUMOTLARNI YIG'ISH VA QAYTA ISHLASH

3.1. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash ushbu Maxfiylik siyosatiga muvofiq berilgan uning roziligi asosida amalga oshiriladi.

3.2. Foydalanuvchi tomonidan Mobil ilovani yuklab olish va undan foydalanish jarayonida ayrim turdagi shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish uchun axborotni avtomatik yig'ish va kuzatish texnologiyalaridan foydalaniladi, jumladan quyidagi ma'lumotlarni yig'ish uchun:

3.2.1. Foydalanish tafsilotlari, shu jumladan Foydalanuvchi bog'langan, foydalanish huquqiga ega bo'lgan va Mobil ilovada foydalanadigan boshqa axborot resurslariga kirish hamda ulardan foydalanish ma'lumotlari.

3.2.2. Qurilma to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan mobil qurilma va Internetga ulanish haqidagi ma'lumotlar, xususan qurilmaning noyob identifikatori, IP-manzili, operatsion tizimi, brauzer turi, mobil aloqa tarmog'i haqidagi ma'lumotlar va qurilma telefon raqami va boshqalar.

3.2.3. Saqlangan ma'lumotlar va fayllar, shu jumladan cookies fayllaridagi ma'lumotlar.

Cookies fayllarini o'chirib qo'yish Mobil ilovaning avtorizatsiyani talab qiladigan ayrim qismlaridan foydalanish imkoniyatini cheklashi mumkin, shu jumladan Mobil ilovada ariza rasmiylashtirish imkoniyatining yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Normal ishlashi uchun Mobil ilova Foydalanuvchining shaxsiy kontaktlari va manzillar kitobi ma'lumotlariga, Foydalanuvchi bog'langan shaxslar va guruhlar haqidagi ma'lumotlarga, ular bilan o'zaro aloqalari haqidagi ma'lumotlarga kirish huquqiga ega bo'lishi kerak: kontakt ma'lumotlari Foydalanuvchi tomonidan bunday ma'lumotlarni (masalan, manzillar kitobini) yuklash, sinxronlashtirish yoki import qilish vaqtida taqdim etiladi. Shuningdek, Mobil ilova Foydalanuvchi qurilmasida saqlanayotgan boshqa fayllar va ma'lumotlar bazalariga, shu jumladan fotosuratlar, audio va video yozuvlarni o'z ichiga olgan multimedia materiallariga ham kirish huquqiga ega bo'lishi mumkin.

3.2.4. Kompaniya shuningdek Mobil ilovadan foydalanish davomida boshqa Foydalanuvchilar tomonidan taqdim etilgan axborot va ma'lumotlarni ham yig'adi. Masalan, ular boshqa Foydalanuvchining fotosuratini ulashganda, unga xabar yuborganda yoki boshqa Foydalanuvchining kontakt ma'lumotlarini yuklaganda, sinxronlashtirganda yoki import qilganda.

3.3. Kompaniya Foydalanuvchi tomonidan Mobil ilovadan foydalanish davomida radio mayoqchalar, joylashuvni aniqlash xizmatlari va geolokatsiya ma'lumotlari orqali qurilmaning joylashuvi haqidagi real vaqt rejimidagi ma'lumotlarni ham yig'adi.

Foydalanuvchi o'z qurilmasi sozlamalari orqali joylashuv ma'lumotlarini taqdim etish funksiyasini o'chirib qo'yishi mumkin, biroq bu Mobil ilovaning ayrim imkoniyatlarini cheklashi mumkinligini inobatga olishi lozim.

3.4. Mobil ilova yoki uning tarkibidan foydalanish vaqtida uchinchi shaxslar Foydalanuvchilar yoki ularning qurilmalari haqidagi ma'lumotlarni yig'ish uchun avtomatik axborot yig'ish texnologiyalaridan foydalanishlari mumkin. Bunday uchinchi shaxslar qatoriga reklama beruvchilar, reklama tarmoqlari va reklama serverlari kirishi mumkin. Uchinchi shaxslar Foydalanuvchilar ilovadan foydalanish jarayonida ular haqidagi ma'lumotlarni yig'ish uchun kuzatuv texnologiyalaridan foydalanishlari mumkin. Kompaniya uchinchi shaxslarning

harakatlari uchun javobgar emas va ular tomonidan qo'llaniladigan kuzatuv texnologiyalarini hamda ushbu ma'lumotlardan qanday foydalanilishini nazorat qilmaydi. Agar Foydalanuvchida uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etilayotgan reklama yoki boshqa maqsadli kontent bo'yicha savollar yuzaga kelsa, bunday axborot taqdim etuvchisiga bevosita murojaat qilish tavsiya etiladi.

4. SHAXSIY MA'LUMOTLARNI YIG'ISH VA QAYTA ISHLASH MAQSADLARI

4.1. Kompaniya Mobil ilovaning to'g'ri va tezkor ishlashini ta'minlash va/yoki Foydalanuvchi bilan tuzilgan kelishuvlarni bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlashni amalga oshiradi.

4.2. Mobil ilovadan foydalanish jarayonida Kompaniya Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini quyidagi maqsadlarda yig'adi va qayta ishlaydi:

4.2.1. Foydalanuvchini identifikatsiya qilish, shu jumladan Mobil ilovada ro'yxatdan o'tkazish va Foydalanuvchi hisob yozuvini yaratish, Foydalanuvchiga Kompaniya xizmatlarini, shu jumladan mikrozaym xizmatlarini taqdim etish, shuningdek Mobil ilovaning lozim darajada ishlashini ta'minlash maqsadida. Mobil ilovada shaxsiy kabinet yaratish orqali Foydalanuvchi Kompaniya xizmatlarini olish uchun hisob yozuvi yaratilishiga rozilik bildiradi.

4.2.2. Foydalanuvchiga Mobil ilovaning shaxsiylashtirilgan resurslaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish.

4.2.3. Foydalanuvchi bilan qayta aloqa o'rnatish, shu jumladan: Mobil ilovadan foydalanish, uning funksional imkoniyatlaridagi o'zgarishlar, mavjud yangilanishlar, Kompaniya tomonidan Foydalanuvchiga taklif etilayotgan yoki taqdim etilayotgan mahsulotlar va xizmatlardagi o'zgarishlar bo'yicha bildirishnomalar va so'rovlarni yuborish, xizmatlar ko'rsatish, Foydalanuvchining so'rovlari va arizalarini ko'rib chiqish va hokazolar.

4.2.4. Foydalanuvchi tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligini tasdiqlash.

4.2.5. Foydalanuvchini u tomonidan yuborilgan arizalar/so'rovlarning ijro holati haqida xabardor qilish.

4.2.6. To'lovlarni qayta ishlash, o'tkazish va qabul qilish.

4.2.7. Kompaniya tomonidan Foydalanuvchiga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish.

4.2.8. Foydalanuvchini mahsulotlar assortimenti yangilanishi, maxsus takliflar, narxlar haqidagi ma'lumotlar, o'tkazilayotgan tadbirlar, aksiyalar va MMT yoki MMT hamkorlari nomidan boshqa ma'lumotlar haqida xabardor qilish.

4.2.9. Xavfsizlikni ta'minlash va firibgarlikning oldini olish maqsadida Foydalanuvchining joylashgan manzilini aniqlash.

4.2.10. Mobil ilovadan foydalanish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelganda Foydalanuvchiga samarali mijozlar va texnik qo'llab-quvvatlash xizmatini ko'rsatish.

4.2.11. Servislar sifatini yaxshilash, ulardan foydalanish qulayligini oshirish, yangi servis va xizmatlarni ishlab chiqish.

4.2.12. Shaxsga oid bo'lmagan ma'lumotlar asosida statistik va boshqa tadqiqotlar o'tkazish, shuningdek reklama xabarlarini optimallashtirish.

4.3. Kompaniya yig'ilgan ma'lumotlardan reklama beruvchilarning maqsadli auditoriyasi uchun reklama xabarlarini namoyish etish maqsadida foydalanishga haqli. Bunda Kompaniya Foydalanuvchining roziligisiz uning shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilmaydi yoki ulardan shaxssizlantirilgan shaklda foydalanadi.

5. FOYDALANUVCHINING SHAXSIY MA'LUMOTLARINI QAYTA ISHLASH VA ULARNI UCHINCHI SHAXSLARGA UZATISH SHARTLARI

5.1. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligi saqlanadi, bundan Foydalanuvchi tomonidan o'zi haqidagi ma'lumotlarni cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun umumiy foydalanishga ixtiyoriy ravishda taqdim etish holatlari mustasno. Mobil ilovaning ayrim

funksional servislaridan foydalanishda Foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilishga rozilik beradi.

5.2. Foydalanuvchi Kompaniya quyidagi hollarda uning shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga uzatishga haqli ekanligiga rozilik bildiradi:

5.2.1. Uzatish Foydalanuvchi tomonidan muayyan servisdan foydalanish uchun zarur bo'lsa.

5.2.2. Uzatish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida yoki Foydalanuvchi bilan muayyan huquqiy munosabatlarga nisbatan qo'llaniladigan boshqa qonunchilikda belgilangan tartib doirasida nazarda tutilgan bo'lsa. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan asoslar va tartibda vakolatli davlat organlariga taqdim etilishi mumkin.

5.2.3. Mobil ilovaga bo'lgan huquqlar boshqa shaxsga o'tganda (Mobil ilova sotilganda), ushbu shaxsga olingan shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan ushbu Maxfiylik siyosati shartlariga rioya qilish bo'yicha barcha majburiyatlar ham o'tadi.

5.2.4. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan cheklanmagan boshqa hollarda.

5.3. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash, shaxsiy ma'lumotlar subyektining ularni qayta ishlashga bergan roziligi amal qiladigan muddat davomida, avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan, qonuniy usullar bilan, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlar axborot tizimlarida amalga oshiriladi.

6. FOYDALANUVCHINING SHAXSIY MA'LUMOTLARIGA KIRISH VA ULARNI TUZATISH

6.1 Agar Foydalanuvchi Mobil ilovaning foydalanuvchi kelishuvidagi bandlardan birortasiga rioya qilmasa yoki Mobil ilovadan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini buzgan holda foydalansa, Kompaniya Foydalanuvchining barcha yig'ilgan shaxsiy ma'lumotlari bilan birgalikda uning hisob yozuvini o'chirishga haqli.

6.2. Foydalanuvchi tomonidan Mobil ilovadan ro'yxatdan o'tish va foydalanish davomida yig'ilgan barcha ma'lumotlar, shu jumladan Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari, xabarlari, fikr-mulohazalari, izohlari hamda yuborilgan multimedia fayllari xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq Mobil ilovaning ma'lumotlar bazasida saqlanadi va faqat Foydalanuvchining arizasiga asosan Kompaniya tomonidan o'chirilishi mumkin.

7. MA'LUMOTLAR XAVFSIZLIGI

7.1. Kompaniya O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Shaxsiy va boshqa ma'lumotlarning tegishli himoyasini ta'minlaydi hamda Foydalanuvchining Shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun zarur va yetarli tashkiliy hamda texnik choralarni ko'radi. Qo'llanilayotgan himoya choralari, jumladan, Shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy yoki tasodifiy kirishdan, yo'q qilishdan, o'zgartirishdan, bloklashdan, nusxa olishdan, tarqatishdan, shuningdek ular bilan bog'liq boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilish imkonini beradi.

7.2. Mobil ilova Foydalanuvchilari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar himoyalangan serverlarda va tarmoqlararo ekranlar ortida saqlanadi.

7.3. Foydalanuvchi tomonidan taqdim etilgan barcha ma'lumotlar HTTPS shifrlangan aloqa kanali orqali assimetrik shifrlashdan foydalangan holda uzatiladi.

7.4. Shaxsiy ma'lumotlar va boshqa shaxsiy axborotlarni har qanday uzatish Foydalanuvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda va uning shaxsiy javobgarligi ostida amalga oshiriladi.

7.5. Kompaniya Foydalanuvchilar tomonidan maxfiylik sozlamalarini buzish va mustaqil ravishda o'zgartirishga hamda xavfsizlik choralarni buzishga qaratilgan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

8. MAXFIYLIK SIYOSATIDAGI O'ZGARTIRISHLAR

8.1 Kompaniya ushbu Maxfiylik siyosatini istalgan vaqtda, Foydalanuvchini oldindan ogohlantirmasdan va uning roziligisiz o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

8.2. Foydalanuvchi Maxfiylik siyosati sahifasiga davriy ravishda tashrif buyurib, undagi o'zgarishlar mavjudligini tekshirish va ular bilan tanishish uchun javobgar hisoblanadi.

8.3. Maxfiylik siyosatiga o'zgartirishlar kiritilgandan keyin Foydalanuvchi tomonidan Ilovadan foydalanishni davom ettirish ushbu o'zgartirishlarning Foydalanuvchi tomonidan so'zsiz qabul qilinganligini anglatadi.

8.4. Shaxsiy va boshqa ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va ulardan foydalanish shartlaridagi o'zgarishlarga rozi bo'lmagan taqdirda, Foydalanuvchi bir tomonlama tartibda Mobil ilovadan foydalanishni to'xtatish va Mobil ilovani qurilmadan o'chirib tashlash huquqiga ega.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. "una moliya" mobil ilovasi 18 yoshdan kichik Foydalanuvchilar uchun mo'ljallanmagan.

9.2. Ushbu Maxfiylik siyosati faqat "**una moliya**" Mobil ilovasiga nisbatan qo'llaniladi. Kompaniya Foydalanuvchi tomonidan mustaqil ravishda o'tishi mumkin bo'lgan, "**una moliya**" Mobil ilovasi bilan bog'langan va unda mavjud havolalar orqali kiriladigan boshqa uchinchi shaxslarning mobil ilovalari va saytlarini nazorat qilmaydi hamda ular uchun javobgar emas.

9.3. Ushbu Maxfiylik siyosati shartlarini qabul qilish orqali Foydalanuvchi o'zining shaxsiy ma'lumotlarini, shu jumladan transchegaraviy tarzda, uchinchi shaxslarga uzatishga so'zsiz rozilik beradi.

9.4. Kompaniya Foydalanuvchi tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilishi uchun javobgar emas. Foydalanuvchi taqdim etilgan ma'lumotlar uchun mustaqil ravishda va to'liq hajmda javobgar hisoblanadi. Shu bilan birga, Kompaniya Foydalanuvchi Mobil ilovada so'ralgan masalalar bo'yicha ishonchli va yetarli shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etganligi hamda ushbu ma'lumotlarni dolzarb holatda saqlab turishidan kelib chiqadi.

9.5. Mobil ilovada ro'yxatdan o'tish va undan foydalanish orqali Foydalanuvchi Mobil ilovaning funksional imkoniyatlaridan irqiy kamsitishni qo'zg'atish, millatlararo adovatni targ'ib qilish, zo'ravonlikni targ'ib etish, tuhmat tarqatish, huquq-tartibot va axloq asoslariga zid ma'lumotlarni yoyish maqsadida foydalanmasligini hamda noqonuniy xususiyatga ega axborot va materiallarni yaratmasligi va tarqatmasligini kafolatlaydi.

9.6. Ushbu Maxfiylik siyosati bo'yicha barcha taklif va savollar quyidagi elektron pochta manziliga yuborilishi lozim: info@unamoliya.uz.